
ALISHER NAVOIYNING FARG'ONA SHAHRIDAGI HAYKALI YONIDA SANA MUNOSABATI BILAN BAYRAM TADBIRI TASHKIL ETILDI

Yurtimizning barcha hududlarida 21 oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan bayram tadbirlari o'tkazilmoqda.

Bugun erta tongdan o'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning Farg'ona shahridagi haykali yonida sana munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat sektorlari va mudofaa tizimlari rahbarlari, viloyat boshqarma va tashkilotlari, ta'llim muassasalari hamda keng jamoatchilik vakillari, yozuvchi va shoirlar, yoshlar ishtirok etdilar.

Viloyat rahbari barchani o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz besh yilligi bayrami bilan tabriklab, o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat ekanligini ta'kidladi.

Bugun jamiyat oldida o'zbek tilini asrab-avaylash va rivojlantirish borasida muhim vazifalar turganligini, ta'limda tilning rolini kuchaytirish, o'zbek tilini raqamli makonda faol targ'ib qilish va ommalashtirish zarurligi, tilni o'rGANISH va ommalashtirishga qaratilgan madaniy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim vazifa ekanligi bo'yicha so'z yuritildi.

Tadbir davomida o'zbek tilini ulug'lovchi she'rlar yangradi, Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-21 12:26:38